


Yer to'g'risidagi fanlar		
t/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natijalar
1	O'zbekiston Respublikasi hududini muhandislik-geologik sharoitlar bo'yicha rayonlashtirish hamda har bir rayon uchun mos geotexnik tavsiyalar ishlab chiqish. 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: – O'zbekiston hududini muhandislik – geologik sharoitlar asosida ilmiy asoslangan rayonlashtirish metodikasi ishlab chiqiladi; – turli geologik va gidrogeologik sharoitlar uchun qurilishda qo'llaniladigan geotexnik yechimlar tizimlashtiriladi; – geotexnik tahlillar asosida axborot bazasi yaratiladi hamda loyihalash va qurilish jarayonlarida foydalanish uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi; – olingan natijalar normativ huquqiy bazani takomillashtirish, shuningdek amaldagi shaharsozlik normalari va qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlash uchun asos bo'ladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish. Olingan natijalar Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.

